



RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **2858,9** mlrd.so'mni, o'sish **102,6 %** ga o'sgan.
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati **100,0 %** ga o'sgan.
- Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - **55,9 %**
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **65,2 %**



2018 yil yanvar-noyabr oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi

B

- Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (o'sish sur'ati **122,9%**, jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi **1,1 %**)

C

- Ishlab chiqaradigan sanoat (o'tgan yilning mos davriga nisbatan **101,5 %**, jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi **91,9 %**)

D

- Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondititsiyalash (o'sish sur'ati **119,5 %**, jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi **5,5 %**)

E

- Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish (o'tgan yilning mos davriga nisbatan **113,2 %**, jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi **1,5 %**)

Jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari 2858,9 mlrd.so'mni tashkil etgan bo'lib, o'tgan yilga nisbatan 102,6 %ga o'sgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi bo'yicha ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari



Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash **(B-seksiya)**.

Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 30,2 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,1 % ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati) **(C-seksiya)**.

2018 yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2628,0 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 91,9 % ni tashkil etdi.


O'z navbatida sanoatning mazkur tarmog'ida eng yuqori ulushini to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish 27,5 %, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqaradigan 20,8 %, boshqa nometal meniral mahsulotlari ishlab chiqarish 9,4 %, elektr uskunalar ishlab chiqarish 8,1 % ni tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin.

1-jadval

Mahsulot nomi	hisobot yilida		O'sish sura'ti, %da
To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	785,4		98,1
Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	594,5		82,9
Boshqa nometal meniral mahsulotlari ishlab chiqarish	268,4		216,1
Elektr uskunalar mahsulotlari ishlab chiqarish	232,7		86,0

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondititsiyalash **(D-seksiya)**.

Joriy yilning yanvar-oktabr oylarida Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondititsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 157,2 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,5 % ni) tashkil etdi, shu bilan birga o'tgan yilning mos davriga nisbatan 119,5 % ga o'sganligini ko'rishimiz mumkin.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish. **(E-seksiya)**.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 43,4 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,5 % ni) tashkil etdi.


Joriy yilning yanvar-noyabr oylarida sanoatning **(E-seksiya)** mazkur tarmog'ida eng yuqori ulushini, ishlov berish, yo'qotish, o'tilzasiya qilish 1,0 % ni tashkil etadi, suv yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash 0,5 %, chiqindilarni yig'ish.



Jizzax viloyati bo'yicha 2018 yil yanvar-noyabr oylarida amaldagi narxlarda ishlab chiqarilgan sanoat maxsulotlari 2858,9 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan solishtirma narxlarda 102,6 %ga o'sgan.

1-diagramma

Ishlab chiqarilgan sanoat maxsulotlarining xajmi, mlrd. so'm




Joriy yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqarilgan sanoat maxsulotlari solishtirma narxlarda o'sish sur'ati 102,6 %ga o'sgan bo'lib, Forish 167,0 %, Zarbdor 112,7 %, Arnasoy 106,9 %, G'allaorol 106,8 %, Do'stlik 104,5% ga ya'ni viloyat o'sish sur'atidan yuqori ekanligini ko'rishimiz mumkin.


Raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha jami sanoatda tuman (shahar)larning yuqori ulushi Jizzax sh. 54,4 %, Do'stlik 11,5 %, Zomin 4,7 %, Sh.Rashidov 4,7 %, Zomin 4,7 %, Forish 4,5 %, Paxtakor 4,2 % ga to'g'ri kelgan.

2-diagramma

2018 yilning yanvar-noyabr oylarida hududlarda sanoat ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'atlari
(o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan, % da)




3-diagramma



Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 1598,3 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2017 yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 100,0 %ga, jami sanoatdagi ulushi esa 55,9 %ni tashkil etdi.


4-diagramma



2017 yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 54,1% dan 2018 yilning yanvar-noyabr oylarida 67,2 %ni tashkil etmoqda.

5-diagramma


■ -Oziq-ovqat mahsulotlari ■ - Nooziq-ovqat mahsulotlari



Amaldagi narxlarda aholi jon boshiga jami ishlab chiqarilgan sanoat maxsulotlari 2141,6 ming so'mni tashkil etgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirma narxlarda 100,7% ga o'sishga erishilgan bo'lsa, Forish 164,4 %,Zarbdor 110,3 %,Arnasoy 105,5 %,G'allaorol 104,8% ga ya'ni viloyat ko'rsatkichidan bir muncha yuqoriligini ko'rishimiz mumkin.


6-diagramma

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari, ming so'm



7-diagramma

Aholi jon boshiga iste'mol tovarlari, ming so'm




Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini o'tgan yilning mos davriga nisbatan 100,8 %ga o'sishga erishilgan bo'lib, o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 65,2 % tashkil etmoqda.

8-diagramma

Ishlab chiqarilgan sanoat maxsulolarida kichik biznesning ulushi, 65,2%da




Viloyatda hududlarining kichik biznesda eng yuqori o'sish sur'atini Forish 167,0 %, Zomin 119,5 %, G'allaorol 106,8 %.

Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari.

Bugungi kunda viloyatda joriy yilning 1 dekabr holatiga **2229** tadan ziyod sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 816 tasi Jizzax shahrida, 485 tasi Sharof Rashidov, 197 tasi G'allaorol, 171 tasi Zomin, 97 tasi Forish, 82 tasi Zarbdor, 73 tasi Paxtakor, 73 tasi Baxmal, 64 tasi Do'stlik, 53 tasi Mirzacho'l, 48 tasi Zafarobod, 38 tasi Arnasoy, 32 tasi Yangiobod tumanlarida joylashgan.

2018 yil 1 dekabr holatiga faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni

9-diagramma



2-jadval

2018 yil yanvar-noyabr oylarida sanoatning tarkiblari

Tuman (shaxar) nomi	Jami ishlab chiqarish		Xududiy tasarrufdagi		Xududiy tasarrufda bo'lmagan	
	xajmi,	o'sish sur'ati,	xajmi,	o'sish sur'ati,	xajmi,	o'sish sur'ati,
	mlrd. so'm	foiz hisobida	mlrd. so'm	foiz hisobida	mlrd. so'm	foiz hisobida
Viloyat bo'yicha	2858,9	102,6	1158,4	101,8	1700,5	103,1
Jizzax sh. <i>tumanlar:</i>	1555,3	100,7	465,9	102,8	1089,4	100
Arnasoy t.	80	106,9	40,1	92	39,9	131
Baxmal t.	47,2	91,9	47,1	92	0,1	65
G'allaorol t.	85,4	106,8	83,4	107,4	2	85
Sharof Rashidov t.	134,4	91,6	116,7	102,7	17,7	53
Do'stlik t.	330,1	104,5	54,9	98	275,2	106
Zomin t.	135,5	101,2	97,3	121,1	38,2	71
Zarbdor t.	87,3	112,7	40,5	95,5	46,8	135
Zafarobod t.	78,3	100,1	37,1	99,9	41,2	100
Mirzacho'l t.	46,7	95,8	46,7	95,8	-	-
Paxtakor t.	121,3	94,4	40,2	96,8	81,1	93
Forish t.	127,3	167	58,6	98,4	68,7	359
Yangiobod t.	30,1	89,2	29,9	89,1	0,2	108

Viloyat statistika boshqarmasining

Sanoat statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul:

Sh.Sharipov

Aloqa telefoni:

(0371) 230-83-47